

BOLALARNI IJTIMOY HIMOYA QILISH

Xushbakov Sho'hratjon Baxtiyor o'g'li

Samarqand Davlat Universitetining Kattaqo'rg'on filiali talabasi

Rahmonova Sevara Abdusattor qizi

Samarqand Davlat Universitetining Kattaqo'rg'on filiali talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi vaqtda bolalarga qilinayotgan munosabatlar, ularning oqibatlari, bolalar hayotimiz mazmuni ekanligi, ularning ijtimoiy himoyasi davlatlar kesimida qay tarzda olib borilayotganligi to'g'risida so'z boradi. Va albatta, bolalarni tarbiyasi har bir davlatning kelajagiga qanday ta'sir qilishi haqida ham fikr, xulosalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: bola, tarbiya, himoya, ijtimoiy, BMT, UNICEF, qaror, davlat, sog'liq, qonun, zo'ravonlik.

Аннотация: В данной статье рассказывается о современном обращении с детьми, его последствиях, о том, что дети являются сутью нашей жизни, и о том, как осуществляется их социальная защита в разных странах. И, конечно, также представлены мнения и выводы о том, как образование детей влияет на будущее каждой страны.

Ключевые слова: ребенок, воспитание, защита, социальное, ООН, ЮНИСЕФ, решение, государство, здравоохранение, закон, насилие

Abstract: This article talks about the current treatment of children, their consequences, the fact that children are the essence of our lives, and how their social protection is carried out in different countries. And, of course, opinions and conclusions are also presented about how the education of children affects the future of each country.

Key words: child, upbringing, protection, social, UN, UNICEF, decision, state, health, law, violence.

Bolalar bizning hayotimiz gulchechagi hisoblanadi. Ular go‘yoki yorqin ranglarga o‘xshaydi. Xalqimiz ham bezijga "Bolali uy bozor -- bolasiz uy mozor" deb aytishmagan. Ular ko‘zimiz quvonchi, qalbimiz nuridir. Bizning kelajagimiz ularning qo‘lida. Shuning uchun ularni bilim olishi, o‘sib - ulg‘ayishi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratib berishimiz kerak. Ular nozik va nimjon bo‘lishadi. Go‘yoki lola guliday. Biz barcha yomonliklardan ularni himoya qilishimiz asrab - avaylashimiz, ayniqsa tarbiyasiga jiddiy e‘tibor qaratishimiz kerak. Yoshligidan chiroyli tarbiya berib, ma‘naviyatli, ilimli bilimli, odobli qilib tarbiya berishimiz juda muhim sanaladi. Nega deganda - "Yoshlikda olingan bilim toshga o‘yilgan naqshdir" deyishgan. Bola huddi oppoq qog‘oz kabidir. Yoshligida nimani ko‘rsa, nimaga o‘rgatilsa shunga qarab boraveradi. Muhit tasirida ham u tarbiyalanib boradi. Bu ham yaxshilikka ham yomonlikka qarab ketishi mumkin. Shuning uchun ham oilada bolalar tarbiyasini jiddiy e‘tiborga olish lozim. Abdulla Avloniy tarbiyasi haqida juda chiroyli bir fikrni bayot etgan:” Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir” Tarbiya masalasi o‘z-o‘zidan ko‘rinib turibdi. Bunga hamma davlatning o‘z qarashlari bor. Barchasi o‘zining mintalitetiga qarab bola tarbiyasi bilan shug‘illanishadi. Ammo, asosiy urg‘u bunda emas. Asosiy urg‘u ularga qilinayotgan muomilalardadir. To‘g‘ri, aytishimiz mumkin, ular nozik, kichkina va nimjon kim ularga ozor berishi mumkin deb. Lekin, shunday jajji bolalarga jabr, zulm yetkazayotgan insonlar topilmoqda. Shunday ota-onalar borki, o‘z bolalariga qulga qaraganday munosabatda bo‘lishdai. Bu albatta, bizning ertangi kunimiz bo‘lmish bolalarni tarbiyasiga, ruhiyatiga jiddiy ta‘sir qiladi. Shunday davlatlar borki bolalarning hech qanday huquqlari yo‘q. Bizning davlatimiz bundan mustasno. Albatta, chunki bizning xalqimiz bolajon xalq. Har bir yosh-u qari bolalarni birdek yaxshi ko‘rishadi. 1 iyun – Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni. Bu sana tarixi 1925 yilga borib taqaladi. O‘sha yilda turli davlatlar ishtirokida Jyenevada ilk marta bolalar farovonligiga bag‘ishlab xalqaro konferensiya o‘tkaziladi. Konferensiyada ishtirokchi mamlakatlar bolalar kuni sifatida alohida sanani tanlashga kelishib oladi. Biroq qaysidir alohida sana taklif qilinmaydi, hamma o‘z madaniyatiga mos sanani tanlashi tavsiya qilinadi. 1949

yilda esa sovet mamlakatlarida 1950 yildan boshlab 1 iyunni «Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni» sifatida nishonlash to'g'risida qaror qabul qilinadi va bu sana bayram qilina boshlanadi. Bundan tashqari, BMT tomonidan belgilangan 20 noyabr sanasi ham Xalqaro bolalar kuni hisoblanadi. Ayrim davlatlarda bolalar kuni emas, bolalar haftaligi tarzida ham nishonlanadi. Garchi kunlar har xil bo'lsa-da, bu sanalarning hammasi irqi, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, terisining rangidan qat'i nazar, alohida sana belgilash orqali bolalarni himoya qilish, ularni sifatli tibbiy xizmat, ta'lim, yetarli oziq-ovqat bilan ta'minlash borasida xalqaro e'tiborni qaratish maqsad qilingan. Bolalar himoyasi, ularning sog'ligi va ta'limi himoyasida hali dunyo miqyosida ko'plab muammolar bor.¹ Bu kunlarni nishonlashdan maqsad bolalarga bo'lgan e'tiborni kuchaytirish. Ularni himoyasiga katta e'tibor qaratish. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, ularga har doim ham yaxshi muomilada bo'lmaydiganlar ham topilmoqda. Ana shunday vaziyatlarni oldini olish uchun xalqaro bolalarni himoya qilish kunlari belgilab qo'yilgan. Bolalar tirik qolishidagi eng muhim davr – umrining birinchi oyi hisoblanadi. JSST ma'lumotlariga ko'ra, yiliga 2,4 mln chaqaloq bir oylikda vafot etgan. 28 kunlikacha vafot etadigan chaqaloqlarning aksari o'limiga sifatsiz tibbiy xizmat yoki muddatidan oldingi tug'uruq sabab bo'ladi. Dunyo bo'yicha taxminan 356 mln bola o'ta qashshoq ahvolda yashaydi. Kambag'al bolalarning o'lim xavfi o'ziga to'q yashayotgan oilalarning farzandlariga qaraganda ikki barobar yuqori. Hatto rivojlangan davlatlarda ham har yettinchi bolaga kambag'allik xavf soladi. Dunyo bo'yicha 5 yoshdan kichik bo'lgan 14 mln bola kuchli ochlik, minimal diyetalarida ovqatlanmaslikdan azob chekadi. Ularning atigi 25 foizi hayotini saqlab qolish uchun davolanish imkoniga ega. Dunyodagi har bir bola ta'lim olish huquqiga ega bo'lsa-da, hamma bundan foydalana olmaydi. Taxminan 600 mln bola va katta yoshlilar o'qish va matematikani minimum darajada ham o'rgana olishmagan. Ularning har 4 nafaridan biri maktabda o'qigan yoki o'qiyotgan bo'lsa-da, kerakli bilimlarni egallay olmagan.² Bolalar bizning kelajagimiz. Bunday bo'lishiga qaramay

¹<https://kun.uz/uz/news/2022/06/01/1-iyun-bolalarni-himoya-qilish-kuni-ularni-nimalardan-himoya-qilish-kerak>

²<https://kun.uz/uz/news/2022/06/01/1-iyun-bolalarni-himoya-qilish-kuni-ularni-nimalardan-himoya-qilish-kerak>

ularga yaxshi munosabatlar bildiruvchi kishilarni kamligi yuqoridagi ko'rsatkichlarda namoyon bo'lib turibdi. Ayniqsa ijtimoiy muommolarga ular ham bevosita aralashib qolmoqda. Shunday davlatlar borki, toza ichimlik suvini topish muommo. Oziq-ovqat haqida esa tasavvur qilish ham hayolga kemaydi. Bolalar suvsizlikdan, ochlikdan aziyat chekishmoqda. Eng ayanchli holati shundaki, shu holatlar sabab vafot topayotgan bolalar ham yo'q emas. Turli xil davlatlardan moddiy yordamlar tashkil qilinib, Afrikaning yordamga muhtoj, och aholisiga yuborilmoqda. Bu esa quvonarli holatdir. Ikkinchi jahon urushidan keyingi dastlabki yillarda Evropada bolalarning ahvoli dahshatli edi. Ushbu dolzarb muammoni hal qilish uchun Birlashgan Millatlar Tashkiloti yangi agentlik - Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bolalar jamg'armasini (UNICEF) tuzdi. 1953 yilda UNICEF BMT tizimining doimiy qismiga aylandi va penitsillin bilan davolash mumkin bo'lgan millionlab bolalarga zarar etkazuvchi kasallik bo'lgan yawsga qarshi muvaffaqiyatli global kampaniyani boshladi. 1959-yilda BMT Bosh Assambleyasi "Bola huquqlari deklaratsiyasi"ni qabul qildi, unda bolalarning himoya, ta'lim, sog'liqni saqlash, uy-joy va to'g'ri ovqatlanish huquqlari mustahkamlangan. UNICEF o'z ishida Bola huquqlari to'g'risidagi konventsiyaga (1989) rahbarlik qiladi. Konventsiya inson huquqlari bo'yicha tarixdagi eng keng tarqalgan xalqaro shartnomadir. Konventsiya bolalarga nisbatan munosabatni va ularni davolash qoidalarini o'zgartirdi. Bolalar jamiyatning to'liq a'zolari sifatida alohida huquqlarga ega. Konventsiyaning misli ko'rilmagan darajada qo'llab-quvvatlanishi bolalar huquqlarini himoya qilish bo'yicha keng miqyosdagi global majburiyatni yaqqol ko'rsatib turibdi.³ UNICEF bolalarni himoyasi uchun katta harakatlar qildi. Ikkinchi jahon urushidan so'ng ko'p bolalar yetim bo'lib qolishdi. Ularda na uy, na ota-ona bor edi. Ana shunday vaziyatda Unicef ularni himoyasini ta'minlab berdi. Davlatlardagi palapartish holatlardan so'ng bolalarga qilinayotgan munosabatlar ham buni talab qilgan edi. Bolalarga huddi qulday munosabatda bo'lishar, ularni himoya qiladigan hech qanday qonunlarning yo'qligi esa juda katta oqibatlariga olib borayotgan edi. Buning oldini olish uchun BMT yangi jamg'armani tuzdi va bolalarni himoya qilish uchun qonunlar ishlab

³ <https://www.un.org/ru/global-issues/children>

chiqdi. Ularni uy-joy, oziq-ovqat, bilan ta'minlash kerak edi. Bu masalalar o'z yechimini topdi. Bugun sizlar bilan jamoatchilikni bezovta qilayotgan ayrim muommolar yechimi bo'yicha ham, fikrlashib olishimiz zarur. Bu bolalarning ota-onasi, bobo-momolari, o'qituvchi va muallimlari, qolaversa, mahalla-ko'y, yoshlar bilan ishlaydigan mas'ul muataddilar qayerga qarayabdi? Hozirgi g'oyat murakkab davrning keskin talabi shundaki, har qanday imkoniyat va minbardan foydalanib islohotlarimizga halaqit berayotgan barcha muommo va kamchiliklarni birgalikda, ochiq va oshkora muhokama qilishimiz lozim.⁴ Bizning O'zbekistonimizda ham bolalarni himoyasi uchun katta e'tibor qaratilgan. Ularga zo'ravonlik qilganlar, yoki yomon munosabatda bo'lganlarga jinoiy javobgarlik qo'zg'atilib qilmishiga mos ravishda jazo tayinlanadi. Hattoki, yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev ham bola huqularini yanada mustahkamlash uchun yangi qonunlarni ishlab chiqmoqda. Ulardan bir misol qilib aytganda, bola huquqlari bo'yicha vakil lavozmi tashkil etilmoqda. Buni qonun kesimida ko'rishimiz mumkin:

Bola huquqlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida:

Bola huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish, bola huquqlarining kafolatlarini ta'minlash va ushbu sohadagi xalqaro majburiyatlarni bajarishning ta'sirchan tizimini yaratish maqsadida:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 22-apreldagi "Bola huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4296-son qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) o'rinbosari — Bola huquqlari bo'yicha vakil lavozimi joriy etilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.⁵

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bolalarni himoya qilish har birimizning burchimizdir. Albatta bir, qaror chiqishi zarur emas. Har birimiz buni huddi qadriyatlarimizdek qabul qilsak, albatta, bolalarni himoyasi uchun e'tibor berish zarur

⁴Abbosova Maftuna Subxonovna: - "Sog'lom ma'naviy raqobat ijtimoiy muhit transformatsiyasi sifatida" 76- bet.

⁵<https://lex.uz/docs/-4831107>

bo'lmaydi. Xalqimizda bir gap bor- "Kattalarga hurmatda, kichiklarga izzatda bo'lish kerak" degan. Bu gaplar bejizga aytilmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.M.Mirziyoyev-Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini taminlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi
2. <https://kun.uz/uz/news/2022/06/01/1-iyun-bolalarni-himoya-qilish-kuni-ularni-nimalardan-himoya-qilish-kerak>
3. Abbosova Maftuna Subxonovna: - "Sog'lom ma'naviy raqobat ijtimoiy muhit transformatsiyasi sifatida" 76- bet.
4. <https://kun.uz/uz/news/2022/06/01/1-iyun-bolalarni-himoya-qilish-kuni-ularni-nimalardan-himoya-qilish-kerak>
5. <https://www.un.org/ru/global-issues/children>
6. <https://lex.uz/docs/-4831107>